

**O‘ZBEK MUMTOZ SHE’RIYATI USLUBLARINING O‘RGANILISHI**

Daminova Rahima Malikovna  
Samarqand davlat chet tillar instituti  
Sharq tillari fakulteti o‘qituvchisi

**Abstract**

Ushbu maqola o‘zbek mumtoz she‘riyati uslublarining o‘rganilish tarixiga bag‘ishlangan. Maqolada mumtoz adabiyotshunoslikda uslub masalasining o‘rganilishi, uslub masalasiga yondashuvlar, uslubshunos olimlarning ilmiy qarashlari tahlil etiladi. Shuningdek, o‘zbek mumtoz she‘riyati muhim o‘rin tutgan turkona uslub va uning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** mumtoz she‘riyat, uslub, adabiyotshunoslik, uslubshunoslik, turkona uslub, Turkiston uslubi, Xuroson uslubi, bayon tarzi, poetika.

**Introduction**

**Abstract**

This article is dedicated to the history of studying styles in Uzbek classical poetry. The article analyzes the study of style in classical literary criticism, approaches to the issue of style, and the scientific views of stylistic scholars. It also analyzes the Turkic style, which occupies an important place in Uzbek classical poetry, and its specific features.

**Keywords:** Classical poetry, style, literary criticism, stylistics, Turkic style, Turkistan style, Khorasan style, mode of expression, poetics.

O‘zbek adabiyotshunosligi bugungi kunda adabiyotning turli sohalari bo‘yicha ulkan tajribaga ega. Turkiy xalqlar adabiyotining shakllanish va rivojlanish jarayonlari, shoir va adiblarning hayoti, ijodiy faoliyati, adabiy tur va janrlar yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Lekin adabiyotshunosligimizda hali o‘rganilishi lozim bo‘lgan yoki qisman o‘rganilgan masalalar anchagina.

Ana shunday masalalardan yana biri mumtoz va zamonaviy o‘zbek she‘riyatidagi uslublarga doirdir. XX asr adabiyotshunosligida badiiy asarlarning uslubini o‘rganish masalasi ko‘plab ilmiy izlanishlarga asos bo‘lgan. Adabiyotshunoslik ilmida uslub haqida bir-biriga yaqin va bir-birini takrorlamaydigan ta‘riflar va fikr-mulohazalar mavjud. Uslub arabcha tartib, tizim ma‘nosidagi so‘z hisoblanadi. Atama sifatida “Uslub yozuvchining voqelik va insonni idrok qilishi, uning qalbidagi haqiqatni kashf etishi va uni so‘z vositasida obrazli ifodalay olishi – bu vazifalarni individual (o‘ziga xos tarzda) yaratish san‘atidir”.<sup>1</sup>

“Uslub badiiy asarning umumiy koloriti, toni, obrazlar tizimi, ijodkorning obraz yaratish usuli, badiiy vositalaridagi o‘ziga xoslik, san‘atkorning dunyoqarashi ifodasi, asardagi asosiy fikr,

<sup>1</sup> Umurov H. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: Sharq, 2002, 236-bet.

yetakchi g'oyaga xizmat qiluvchi syujet, xarakterlar, tasvir vositalari, tili va boshqalaridagi umumiylik, yaxlitlik ma'no tarzi"<sup>2</sup> kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Qadimda ijodkor uslubiga nisbatan "bayon tarzi" atamasi qo'llangan.

Badiiy asarlarning uslub masalasiga qadimdan qiziqish kuchli bo'lgan. Aristotel o'zining "Ritorika" asarida uslub masalasiga ham e'tibor qaratadi va uslubni notiqlik san'ati bilan bog'lab talqin etadi. O'rta asrlarga kelib, Yevropa adabiyotshunosligida ham uslub masalasida ilmiy tadqiqotlar yuzaga kela boshlandi. Yevropa ritorikasida paydo bo'lgan "individual uslub" atamasini P.Giro "inson dunyoqarashining bir ozuqasi" sifatida talqin eta boshlaydi. Fransuz yozuvchisi Marivo yozuvchi uslubini uning dunyoqarashi, ruhiyati bilan bog'lab o'rganadi.

O'zbek adabiyotshunosligida XX asr boshlarida badiiy asarlarning tili va uslubi masalasiga doir ilmiy izlanishlar yaratila boshlandi. A.Sa'diy, A.Fitrat, S.Ayniy kabi olimlar uslubni alohida poetik hodisa sifatida o'rgana boshladilar. A.Fitrat "Adabiyot qoidalari" qo'llanmasida uslub haqida, xususan, she'riyatdagi uslublar haqida shunday yozadi: "...shoirning xayol, o'y, tushunish shakllari tug'al, komil bo'lgach, o'ziga yarasha bir uslub borliqg'a chiqq'an bo'ladir. Go'zal san'atlarda har millatning o'ziga xos uslubi bo'lgani kabi har zamonning o'ziga maxsus uslubi bordir"<sup>3</sup>.

Fitratning bu ta'rifidan anglashiladiki, uslubning shakllanishi shoirning dunyoqarashi, o'y-xayollari bilan bog'liq tarzda namoyon bo'ladi. Uslub muayyan davr adabiyotining o'ziga xos barcha qirralarini qamrab oladi. Olim mazkur maqolasida o'zbek mumtoz she'riyatining uslublari haqida ham ayrim mulohazalarni bayon etadi. Alisher Navoiyning she'riy va nasriy asarlariga xos uslubi haqida: "...tizimda hashamatli bir ohang bilan yuradir, sochimda esa og'irlashib qoladir", – deb yozadi. Uslubning zamon, davr bilan bog'liq holda o'zgarib turishini ta'kidlaydi. Navoiy davri uslubi bilan Umarxon davridagi uslubning bir xil emasligi, yangi davr shoirlarining uslubi ham mumtoz she'riyat uslubidan tubdan farqlanishini aytadi.

Olim o'zbek mumtoz she'riyatidagi ikki xil uslub xususiyatlariga e'tibor qaratadi. Hashamatli uslub deb atagan uslubning yuzaga kelishida saroy adabiyotiga yaqinlik asos bo'lganini ta'kidlab, buni XIV asr oxirlaridan Eron-islom madaniyatining ta'siri bilan izohlaydi. Xalq tiliga yaqin uslubda yaratilgan she'rlarni oddiy va sodda uslub deb ataydi. Bunday uslubda ijod qilgan Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirqoniy, Mashrab kabi shoirlarni ko'rsatib o'tadi va "hashamatli uslub" deb atagan uslub bilan xalqona uslub o'rtasida "tog'lar qadar ayirma, boshqaliq bor"ligini aytib o'tadi. Olim mazkur qo'llanmasida Alisher Navoiy "turkona" deb atagan uslub haqida mulohaza bildirib, shunday deydi: "She'rda fors uslubiga berilib qolgan Alisher Navoiy o'zining "Majolis" degan kitobida ba'zi shoirlar tarjimai holini yozganda "turkona" yozadir, "turkona" she'rlari bor" deb ko'rsatadurkim, bu turk uslubida yozadir demakdan boshqa narsa emas"<sup>4</sup>. Bundan ko'rinib turibdiki, Fitrat she'r yaratish qonun-qoidalari haqida gapirganda uslubni ham asosiy mezon sifatida ko'rsatib o'tadi va bu borada Alisher Navoiyning uslubga doir qarashlariga ham e'tibor beradi. Qo'llanmaning "Uslubning umumiy va xususiy hollari" deb ataluvchi qismida uslubni sodda va bezalgan yoki tasviriy uslub kabi turlari haqida fikr yuritadi. Har ikkala uslub uchun talab etiladigan umumiy

<sup>2</sup> Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Iqtisod – Moliya n, 2007. 268-b.

<sup>3</sup> Фитрат А. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2006 йил, 18-бет.

<sup>4</sup> Фитрат А. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2006 йил, 18-бет.

hollalarni sanab o'tadi. Bular: tuzuklik (bunda jumla tuzilishining sarf va nahv qoidalariga mos kelishini nazarda tutadi), soflilik, ohang, ochiqlik, uyg'unlik. Badiiy asarlarda ishlatiladigan, uslubni bezashga xizmat qiladigan hollalarni uslubning xususiy hollari deb ataydi va sifatlash, o'xshatish, istiora, kinoya, majoz, jonlantirish, tajohuli orif, saj', qarshilantirish, tanosub, ruju', tajnis, laff va nashr, mubolag'a kabi badiiy vositalarning badiiy asarlardagi ahamiyatini tahlil qiladi.

“Demak, Fitrat va A.Sa'diy asarlarida uslub masalalari keng planda o'rganilgan. Unga, asosan, poetik hodisa sifatida qaralgan. Uslubning milliy til, milliy adabiyot, ijodkor dunyoqarashi va ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi, badiiy shakl bilan aloqadorligi e'tibor markazida turgan”<sup>5</sup>.

A.Hayitmetovning “Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan” kitobida: “Uslub bu ma'lum tarixiy sharoitda ijod qilayotgan san'atkorning ma'lum dunyoqarash asosida adabiy traditsiyalarga, til materiallariga, badiiy elementlar va tasviriy vositalarga ijodiy munosabatini anglatadi”<sup>6</sup>, – deb yozadi va uslubning davr va hayot xarakteri bilan bog'lanishi, uning xususiyatlari yozuvchining shaxsiy temperamenti, hayot tajribasi, milliy xususiyatlarga, biror adabiy yo'nalishga tamoyili kabilar orqali aks etishini aytadi. Ma'lum bir davr va tarixiy sharoitda yashab ijod etgan buyuk yozuvchilarning uslubi ijodiy metodni yuzaga keltirsa, bir ijodiy metod doirasida ijod qilgan yozuvchilarning uslubi ham bir-biriga yaqin bo'lishini ta'kidlaydi. Olimning turkiy she'riyat uslubiga doir bildirgan fikrlari ham diqqatga sazovordir. Xususan, “Navoiyning ijodiy metodi masalalari” tadqiqoti, “Alisher Navoiyning badiiy poetik uslubi yuzasidan mulohazalar”, “Ulug' shoir poetik uslubiga doir”, “Turkiston va Xuroson uslublari”, “O'zbek adabiyotida xalqchilik va xalqchil uslub haqida”, “Sehrli nazm” kabi maqolalarida ham mumtoz adabiyotdagi uslub masalalariga doir qimmatli mulohazalar bildiriladi.

A. Hayitmetov turkiy she'riyatda XV asrdan boshlab ikki asosiy uslub faoliyat ko'rsatganini aytadi: “Bulardan biri Ahmad Yassaviy asos solgan Turkiston uslubi, ikkinchisi esa Navoiy asos solgan Xuroson uslubidir”. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasidagi Sakkokiy, Atoyi va Lutfiy ijodiga berilgan ta'riflar asosida muallifning mazkur shoirlar ijodining farqlariga e'tibor qaratganini ta'kidlaydi. “O'zbek she'riyati sohasida, – deb yozadi olim, – Turkiston uslubi Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Bobur, Mashrab, So'fi Allohyor, Turdi, Muqimiy, Zavqiy ijodlarida bugun ham faol iste'molda bo'lgan jonli xalq tiliga yaqin turishga intilishda ko'rinsa, Xuroson uslubi Navoiy, Nishotiy, Munis, Ogahiy, Komil, Avaz kabi shoirlar ijodida an'anaviy mavzularga, obrazlarga keng o'rin berishda, ularga forsiy adabiyot va forsiy til ta'sirining nihoyatda kuchliligida namoyon bo'ladi”<sup>7</sup>.

O'zbek mumtoz she'riyatidagi uslub masalasi haqida gapirganda “turkona” deb atalgan uslub va uning tarixiga alohida to'xtalish lozim. Turkona uslub haqida gap ketganda, avvalo, “turkona” so'zining Navoiy asarlarida qanday ma'noda qo'llangani ham ahamiyatlidir.

Navoiy asarida qo'llangan turkona atamasi haqida gapirib, Y.Is'hoqov shunday yozadi: “She'riyatdagi konkret uslubiy yo'nalish haqida gap borganda Navoiy “turkona” atamasini qo'llaydi. Shoirning nozik qaydlari, garchi yo'l-yo'lakay bayon qilingan bo'lsa ham, turkiy

<sup>5</sup> Жўрақулов У. Худудсиз жилва. –Тошкент: Фан, 2006, 101-бет

<sup>6</sup> Ҳайитметов А. Ўзбек адабиётида халқчиллик тенденцияси.// Ўзбек тили ва адабиёти. 1993. 2-сон. 5-бет.

<sup>7</sup> Ҳайитметов А. Ўзбек адабиётида халқчиллик тенденцияси.// Ўзбек тили ва адабиёти. 1993. 2-сон. 5-бет.

she'riyat uslubiga doir birinchi jiddiy tajriba hisoblanadi"<sup>8</sup>. Olim turkiy she'riyatdagi uslubiy yo'nalishlarni Navoiy davrigacha va Navoiydan keyingi davrda yashab ijod etgan Xuroson va Movarounnahr shoirlari ijodi misolida tahlil qiladi. Muallif Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" va "Mezon ul-avzon" asarlariga asoslanib turkiy she'riyatda uch asosiy uslubiy yo'nalish mavjud bo'lganligiga e'tiborni qaratadi. Bular: turkona, klassik va oliy yoki Navoiyona. Bu uslublarning har biri o'zining g'oyaviy va badiiy-estetik jihatlariga ega bo'lib, o'zidan keyingi uslub taraqqiyoti va shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Y.Ishoqov Navoiygacha ijod etgan mashhur o'zbek shoirlarini turkona uslub vakillari sifatida ko'rsatadi. Bunda olim Navoiyning "turkona aytur erdi" degan e'tiroflariga tayanadi.

Ko'rinib turganidek, poetik ijod sohasida Navoiy adabiy tanqidchiligida maxsus e'tibor qaratilgan turkonalik va turkig'oylik haqida ikki muallif ikki xil munosabat bildiradi. A.Hayitmetov Navoiy tilga olgan "turkona" atamasini "Turkiston uslubi" deb talqin etadi. Bu uslubning xalqchilik xususiyatini adabiy muhitlar, regional adabiy jarayonlar bilan bog'laydi. Turkiston va Movarounnahr shoirlar ijodini mazmun va badiiy ifoda uslubiga ko'ra "turkona" deb atasa, Navoiy she'riyati va Xorazm adabiy muhitining ba'zi vakillari ijodini esa mazmun jihatdan xalqchil, lekin til, bayon-ifoda uslubi jihatidan xurosoniy uslub deb talqin etadi. Olim Navoiy asarlari tilining o'z davri kitobxonlari uchun xalqchil bo'lganini ta'kidlab, ulug' shoir uslubining boshqa turkiy shoirlar uslubiga nisbatan murakkabligini tarixiy davr, sharoit va til taraqqiyoti masalalari bilan bog'laydi. A.Hayitmetov tushunchasiga ko'ra, Navoiy talqinidagi turkona uslub g'oyaviy-badiiy ifoda tarzi jihatidan xalqchil bo'lishi bilangina chegaralanib qolmaydi. Navoiy she'riyati turkona uslub asosida shakllangan va takomillashgan bo'lib, oliy darajadagi xalqchil uslub sifatida o'zbek she'riyatida muhim mavqega ega bo'ldi.

B.Valixo'jaevning "Alisher Navoiy turkiy va turkiyg'oylik haqida" maqolasida turkona uslub haqida fikrlar va uning xususiyatlari haqida tushuncha beradi. U turkona uslubni "turkiy" deb atalgan she'r va uning o'zga xususiyatlari bilan bog'lab, Navoiyning bu uslub namoyandalari ijodiga bo'lgan munosabatini va ularning badiiy xususiyatlarini ko'rsatadi. Olimning ta'kidlashicha, Navoiy "turk" va "turkona" istilohlarini umumxalq nomi, xalqqa mansublik, sodda va qo'rqmas ma'nolarini ifoda etish uchun ishlatgan, lekin "turkcha" va "turkiy" so'zlarini esa ko'proq til ma'nosida qo'llagan. Shu bilan birga, Navoiy "turkiy" so'zini faqat tilga mansublik uchun emas, balki adabiyotshunoslik istilohi sifatida ham qo'llagan.

Navoiy "turkona" atamasini o'z asarlarida fors-tojik klassik uslublari ma'nosida ishlatmagan, balki bu turdagi she'rlar haqida "Mezon ul-avozon" asarida bir ilova sifatida ma'lumot bergan. Olimlarning tahlillaricha, Navoiy tomonidan "oddiyroq, turkona" deb atalgan she'riyat asrlar mobaynida rivojlanib, poetik uslub xususiyatlarini shakllantirgan. Bu uslubning soddaligi uning mukammallikdan yiroqligi emas, balki oddiy va xalqchilligi bilan bog'liq. Masalan, fors-tojik mumtoz uslublari va xuroson uslubi va hindiy, iroqiy uslublarining ba'zi badiiy xususiyatlaridan farqli ravishda, turkona uslub sodda, ravon va ruhafzo bo'lgan.

D.Salo'hiy ham turkona uslubga oid fikrlari bilan o'rtoqlashib, Navoiy turkona atamasini adabiyotshunoslikda ijobiy ma'noda, xususan, g'azal janri nuqtayi nazaridan qo'llaganini ta'kidlaydi. Olima "Mezon ul-avozon" asarida qo'shiq janri vaznlari orqali bu uslub

<sup>8</sup> Исҳоқов Ё. Навоий ва ўзбек шеърлятидаги услублар масаласи.// Ўзбек тили ва адабиёти. 1990. 5-сон.5-бет.

xususiyatlariga ishora borligini qayd etadi. Shuningdek, XIV asrdan boshlab xalqchilik ruhida rivojlangan va gʻazalnavis shoirlar ijodida sodda, ravon, oʻynoqi va yorqin poetik uslub shaklini olgan bu turkona uslub Navoiy adabiy tanqidchiligida maxsus nom bilan ataladi va badiiy jihatdan qisman tahlil qilinadi.

Qisqasi, turkona uslub Navoiy ijodida sodda, ravon til, ruhafzo va oʻynoqi bayon tarzi hamda yorqin badiiy sanʼatlarni oʻz ichiga olgan xalqchil poetik uslub sifatida muhim ahamiyatga ega ekanligi taʼkidlanadi.

B.Valixoʻjaev “Alisher Navoiy turkiy va turkiygʻoylik haqida” nomli maqolasida turkona uslub haqida fikr bildirib, bu uslub xususiyatlarini oʻzida jamlagan “turkiy” deb atalmish sheʼr va uning oʻziga xos jihatlarni izohlaydi. Olim Alisher Navoiyning bu uslub namoyandalari ijodiga boʻlgan munosabatini va unda yaratilgan namunalarning badiiy xususiyatlarini koʻrsatib oʻtadi. Olimning fikricha, Navoiy “turk”, “turkona” istilohlarini umumxalq nomi, shu xalqqa mansublik, baʼzan qoʻrqmas, oddiy va sodda maʼnolarida ishlatgan, turkcha, turkiy soʻzlarini esa maʼlum til maʼnosida qoʻllaganligini taʼkidlaydi. “Shu bilan bir qatorda, Alisher Navoiy “turkiy” soʻzini faqat bir tilga mansubiyat maʼnosidagina emas, balki adabiyotshunoslik istilohi sifatida ham qoʻllagan”<sup>9</sup>.

Navoiy “turkona” atamasini ilmiy asarlarida mukammal sayqallangan fors-tojik klassik uslublari maʼnosida qoʻllamaydi. Shuning uchun “Mezon ul-avzon”da bu turdagi sheʼrlar haqida bir ilova tarzida maʼlumot beradi. Ammo ulugʻ shoir “oddiyroq, turkona” deb atagan sheʼriyat ham asrlar davomida sayqallangan, ilk oʻrta asrlardayoq muayyan poetik uslub xususiyatlarini oʻzida namoyon eta borgan. Bu uslubning nomukammalligi uning soddaroq va oddiyligida koʻrinib, masalan, fors-tojik mumtoz uslublaridan xurosoniy uslubda fikrning uzundan uzoq jimjimador ifodasi, hindiy uslubda esa poetik sanʼatlarning haddan ziyod namoyishi, iroqiy uslubda oʻquvchi anglab olishi murakkab boʻlgan falsafiy mushohadalarning koʻpligi hollari ham ijobiy hodisa sanalmaydi. Qolaversa, Navoiy tilida biz nazarda tutgan maʼnodagi “uslub” istilohi qoʻllanilmaydi. Ammo ulugʻ shoir fikr-mulohazalarini shu maʼnoda – uslub maʼnosida bayon etadi.

D. Salohiy turkona uslubga xos xususiyatlar haqida fikr bildirib, shunday yozadi: “Alisher Navoiy turkona atamasini adabiyotshunoslikka oid ilmiy asarlarida taʼrif-tavsif va ijobiy hodisa maʼnosida gʻazal janri nuqtayi nazaridan (lirik shoirlar ijodi misolida) isteʼmolga kiritadi. “Mezon ul-avzon” asarida esa bilvosita qoʻshiq janri vaznlari munosabati bilan bu uslub xususiyatlariga ishora qiladi. Maʼlum boʻlayotganidek, ildizlari XIV asrdan boshlab xalqchilik ruhida taraqqiy etib, gʻazalnavis shoirlar Atoyi, Gadoiy, Sakkokiy va, ayniqsa, Lutfiy ijodida sodda til hamda oʻynoqi, ravon, shakl jihatidan yaqqol koʻzga tashlanib qolgan poetik uslub Navoiy adabiy tanqidchiligida maxsus nom bilan ataladi va badiiy jihatdan qisman tahlil etiladi”<sup>10</sup>. Olima: “Navoiy turkona atamasini taʼrif-tavsif va ijobiy hodisa maʼnosida isteʼmolga kiritdi”, – der ekan, nazarimizda bu uslub xususiyatlaridan boʻlmish sodda va ravon til, ruhafzo va oʻynoqi bayon tarzi va yorqin sanʼatlar namoyishini nazarda tutadi.

<sup>9</sup> Валихўжаев Б. Алишер Навоий туркий ва туркийгўйлик ҳақида. Илмий тўплам. Адабий жанр ва бадий маҳорат масалалари. Самарқанд, 1998. 56-64-бет.

<sup>10</sup> Салоҳий Д. Алишер Навоий поэтик услубининг тадрижий тақомили. ДД. – Тошкент: 2001. 217-бет.

Alisher Navoiy turkona uslubning asosiy xususiyatlarini turkiy xalqlar tilida mavjud bo'lgan qo'shiqlar bilan bog'laydi. "Mezon ul-avzon" asarida xalq qo'shiqlarining ayrimlariga ta'rif beradi: "Birisi tuyug'durkim...", "Yana qo'shug'durkim...", "Yana chingadurkim...", "Va yana turk ulusida bir suruddurkim, ani "Muhabbatnoma" derlar...", "Va yana bu xalq orasida bir surud bor ekandurkim, ...ani "mustazod" derlar ermish...", "Yana Iroq xalqi tarokimasida surudedur shoyi' kim, ani aruzvoriy derlar...", "Yana surudedurkim, ani "turkiy" debdurlar" kabi.

Alisher Navoiyning ushbu tasnifotidan ko'rinib turibdiki, she'riyatda turkona uslub ana shu janrlar zahirida vujudga kelgan. Navoiy "Mezon ul-avzon"da turkona she'riyat namunalari asosan xalq ozaki ijodida surudlar (qo'shiqlar) tarzida namoyon bo'lishini aytadi.

Turkona uslub mazmun mohiyati jihatidan Sharq xalqlari she'riyati tarixida ma'lum bo'lgan, fors-tojik she'riyatining eng qadimiy xurosoniy yoki turkistoniy uslub deb atalgan uslubiga yaqin bo'lsa-da, Navoiy uni nisbatan tor ma'noda, "she'riyatdagi konkret uslubiy yo'nalish" ma'nosida qo'llaydi. Fors-tojik she'riyatidagi xurosoniy uslub va turkiy she'riyatdagi turkona uslub badiiy til va stilistikasining sodda va ravonligi bilan bir-biriga yaqin. Bu hodisa bevosita turkiy xalqlarning tarixiy an'analari, urf-odatlar, e'tiqodlari, ma'naviy salohiyatlari bilan bog'liqdir. Bu xususda A.Hayitmetov shunday yozadi: "Fors-tojik adabiyotida bunday stilning paydo bo'lishida o'zi yoki kelib chiqishi o'zbek bo'lib, asarlarini esa fors-tojik tilida yozgan shoirlarning roli ham katta bo'ldi. O'z lirik asarlarini, xususan, g'azallarini shunday sodda til va stil bilan yozgan, fors-tojik va o'zbek poeziyasi taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan Amir Xusrav Dehlaviy ota-bobolarining asli Movarounnahrda keshlik o'zbeklardan bo'lganligi, mo'g'ul istilosi davrida Hindistonga ketib qolgan bunga bir misoldir"<sup>11</sup>.

Y. Is'hoqov Navoiyning adabiyotshunoslikka doir asarlariga asoslangan holda turkiy she'riyatda asosiy uslub sifatida namoyon bo'lgan turkonani quyidagicha ta'riflaydi: "...fikr va kechinmalarni murakkab tashbih va istioralarsiz, sodda va oddiy bayon qilish (avtologiya) turkona uslubning asosiy mohiyatini tashkil etadi. Shuningdek, poetik sintaksisning oddiyligi, yengil vaznlarning (ko'proq milliy zaminga ega ramal va hazaj bahri) qo'llanilishi, qofiya masalasida folklorga yaqinlik (ya'ni alliteratsion-intonatsion prinsiplarning saqlanganligi), janr hukmronligi (ko'proq tuyuq), poetikasi (g'azalning hajmi, kompozitsiyasi, tematikasi) borasida ham turkona o'ziga xoslikka ega"<sup>12</sup>.

Olim turkona uslubda yaratilgan she'rlar uchun murakkab poetik figuralar xos emasligini ta'kidlaydi, lekin tajnisning muhim mavqega ega ekanligiga e'tiborni qaratadi. Olimning bu ta'riflariga tayanqan holda aytish mumkinki, turkona uslub Navoiy davrigacha ijod qilgan shoirlar she'riyatining ko'pchiligi uchun xosdir. Ayniqsa, Atoy she'riyati poetikasida turkona uslubning xususiyatlari ancha aniq ko'zga tashlanadi.

<sup>11</sup> Хайитметов А. Навоий лирикаси. –Тошкент: ФАН, 1961. 74-бет.

<sup>12</sup> Исҳоқов Ё. Навоий ва ўзбек шеъриятидаги услублар масаласи.// Ўзбек тили ва адабиёти. 1990. 5-сон.5-бет.

**Adabiyotlar ro'yxati**

1. Valixo'jaev B. Alisher Navoiy turkiy va turkiygo'ylik haqida. Ilmiy to'plam. Adabiy janr va badiiy mahorat masalalari. Samarqand. 1998.
2. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
3. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: FAN, 1961.
4. Hayitmetov A. O'zbek adabiyotida xalqchillik tendensiyasi.// O'zbek tili va adabiyoti. 1993. 2-son.
5. Ishoqov Yo. Navoiy va o'zbek she'riyatidagi uslublar masalasi.// O'zbek tili va adabiyoti. 1990. 5-son.
6. Salohiy D. Alisher Navoiy poetik uslubining tadrijiy takomili. – Toshkent: 2001.
7. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2002.
8. Xudoyberdiev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Iqtisod-Moliya n, 2007.